

QADIMGI BAQTRIYA DAVLATI HAQIDA

Saidalimova Muzayyana Baxtiyorjon qizi

*Qo'qon universiteti Andijon filiali**Tarix yo'nalishi 1- kurs talabasi**Email: marhavokoziyeva@gmail.com**Tel: +998 87 608013033*

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi Baqtriya davlati tarixi, uning geografik joylashuvi hamda yozuv tizimi haqida fikr yuritiladi. Baqtriya O'rta Osiyoning janubiy qismida, Surxondaryo va Balx vohalarida shakllangan eng qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri sifatida o'rganiladi. Maqolada Baqtriyaning siyosiy va madaniy hayotida yunon, oromiy hamda mahalliy unsurlar o'zaro uyg'unlashgani yoritiladi. Shuningdek, Baqtriya yozuvining kelib chiqishi, tarkibi va Kushon davrida davlat tili sifatida tutgan o'rni ilmiy manbalarga tayanib tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Baqtriya davlati, qadimgi O'rta Osiyo, Yunon-Baqtriya podsholigi, geografik joylashuv, Balxob daryosi, Kushon davlati, Baqtriya yozuvi, oromiy yozuv, yunon alifbosi, madaniy meros, tarixiy manbalar.

Аннотация: В данной статье рассматривается история древнего Бактрийского государства, его географическое расположение и письменная система. Бактрия изучается как один из древнейших культурных центров, сформировавшихся на юге Средней Азии. В статье освещается взаимодействие греческих, арамейских и местных элементов в политической и культурной жизни Бактрии. Также анализируется происхождение, структура и значение бактрийского письма, которое в период Кушан служило государственным языком.

Ключевые слова: Бактрийское государство, древняя Средняя Азия, Греко-Бактрийское царство, географическое положение, река Балхаб, Кушанское государство, бактрийское письмо, арамейское письмо, греческий алфавит, культурное наследие, исторические источники.

Abstarkt: This article discusses the history of the ancient Bactrian state, its geographical location, and its writing system. Bactria is studied as one of the earliest cultural centers that emerged in the southern part of Central Asia. The article highlights the interaction of Greek, Aramaic, and local elements in the political and cultural life of Bactria. It also analyzes the origin, structure, and significance of the Bactrian script, which served as the state language during the Kushan period, based on historical sources.

Keywords: Bactrian state, ancient Central Asia, Greco-Bactrian kingdom, geographical location, Balkhab River, Kushan Empire, Bactrian script, Aramaic script, Greek alphabet, cultural heritage, historical sources.

Kirish: Baqtriya davlati miloddan avvalgi VII asrlarda tashkil topgan O'rta Osiyodagi qadimgi davlatlardan biri sanaladi. Marg'iyonava va Sug'diyona Baqtriyaning siyosiy va

madaniy ta'sirida bo'lgan. Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vohalarida qadimgi shaharlar rivojlangan. Qiziltepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on, Afrosiyob hududida Baqtriya va So'g'dning markaziy shaharlari joylashgan. Bu qadimgi shaharlarning yoshi taxminan 2700 yil. Bu shaharlar enO'zbekistondagi qadimgilaridan bo'lib, ular shuning uchun Baqtriya bilan madaniy va savdo aloqalari bo'lgan elatlarning davlat birlashmasi deb hisoblanadi. Miloddan.avvalgi VII-VI asrlarda va O'zbekistonga chegaradosh viloyatlar qadimgi Baqtriya davlati ta'sirida bo'lgan.Surxondaryo vodiysida qadimda Dalvarzintepa, Kampirtepa, Zartepa singari manzilgohlar mavjud bo'lib, bu hudud O'rta Osiyoning janubiy qismidagi yirik madaniyat markazlaridan biri hisoblanadi.Baqtiya hududi Marg'iyona, Sug'diyona va Zarafshon vohasi bilan tutashgan.Zarafshon vodiysining yuqori qismida, hozirgi Oz'bekiston bilan Tojikiston chegarasida joylashgan Sarazm madaniyati ham shu hudud bilan bog'liq bo'lgan.

Baqtriya qadimgi Markaziy Osiyoning eng mashhur tarixiy-geografik(makoni)viloyatlarida bo'lib uning nomining shakllanishi Baqtriya Balxob daryosi bilan bog'liq. Baqtriyaning janubiy chegarasiHindiqush(Parnos) to'glari, shimolda Sug'diyona, g'arbda esa Marg'iyona bilan belgilanadi. Bu tarixiy makon ham ilk davlatchilik vatanlaridan biri bo'lib, bu haqida daslabgi ma'lumotlar Avesto da uchraydi. Keyinchalik Baqtriya Ahmoniylar davrida Kir II tomonidan zabt etiladi. Baqtiriya aholisini talab va zulm natijasida Ahmoniylar davrida ko'plab isyonlar bo'lgan. Miloddan avvalgi 462-424 yillarda isyon yuz berib Baqtriya qisqa muddatda ozodlikka erishadi. Bu holat Aleksandr Makedonskiy bosib olguncha davom etadi. Miloddan avvalgi 330 yilda Aleksandr Makedonskiy Ahmoniylar davlatiga barham beradi.Aleksandr Makedonskiy bosib olgan shaharlarga o'z nomini beradi. Aleksandr vafotidan so'ng imperiya uch qismga - Makedoniya, Misr, Suriya satraplikka bo'lindi. Baqtriya Yaqin sharq va Hindiston bilan aloqada bo'lgan.Yunon Baqtriya 250 yilga vujudga keladi. Baqtriyaga 250 yilda tashkil topkan Parfiya raqib bo'ladi. Yunon Baqtriya zaiflashib 140-130 yillarda Yuveji Baqtriyani bosib oladi. Yuvejilar Kushon davlatiga asos soladi. Kushonlar davlati miloddiy I - III asrlarda shakllanib Kanushga davrida yuksak rivoj topadi. Baqtriya geografik jihatdan tabiiy boyliklarga boy, savdo yo'llari chorrahasida joylashgani sababli uning iqtisodiy hayoti, shaharsozlik va yozma madaniyati yuqori darajada rivojlangan. Bu holat Baqtriyani Sharq sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biriga aylantirgan.

Baqtriya mahkama tili va yozuvi yunoncha bo'lgan. Keyin miloddan avvalgi III-II asrlarda chegarasida oromiy va qadimgi yunon alifbosiga asoslanib Baqtriya yozuvi ishlab chiqiladi. Bizgacha yuzlardan ortiq baqtriya yozuvi va so'zi etib kelgan. Baqtiya yozuvi topilmaganlari asosan miladdan avvalgi I- asr va miloddiy I - asrlarga taalluqli bo'lib baqtriya tili va yozuvi uncha yaxshi o'rganilmagan.Baqtriya yozuvi yunon alifbosining o'zgartirilgan shakli bo'lib, unda 24 ta yunoncha harf va qo'shimcha "š" tovushi uchun maxsus belgi mavjud bo'lgan. Ushbu yozuv asosan toshbitiklar, tangalar va turli hujjatlarda uchraydi. Ayniqsa, Kushonlar davrida, xususan, podsho Kanishka hukmronligi davrida Baqtriya tili davlat tili sifatida keng qo'llanilgan. Shu sababli



Baqtriya yozuvi Markaziy Osiyoda madaniy va siyosiy hayotda muhim ahamiyat kasb etgan.

O‘zbekiston tarixi (qadimgi davrlardan hozirgi kungacha) asarida ta’kidlanishicha, Baqtriya davlati qadimgi Sharq sivilizatsiyasi shakllangan muhim markazlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Bu hududda dehqonchilik madaniyati, shaharsozlik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va yozuv tizimi yuksak darajada rivojlangan. Baqtriya aholisi o‘z davrining ilg‘or madaniy an‘analarini yaratib, qo‘shni Sug‘diyona, Marg‘iyona hamda Hindiston bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar o‘rnatgan. Mualliflar ta’kidlaganidek, Baqtriya yozuvi bu davr madaniyatining eng muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yozuv orqali o‘sha davrdagi xalqning ijtimoiy hayoti, siyosiy tizimi hamda diniy qarashlari haqida qimmatli ma’lumotlar bizgacha yetib kelgan. Ayniqsa, Kushonlar davrida Baqtriya tili Markaziy Osiyoda davlat tili sifatida keng qo‘llanilgan va bu mintaqaning madaniy birlikda rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Xulosa qilib aytganda qadimgi Baqtriya davlati Markaziy Osiyoda ilk davlatlilik an‘analarini shakllantirgan yirik siyosiy va madaniy markaz bo‘lgan. Uning geografik joylashuvi tabiiy boyliklarga boy hududlarda joylashgani tufayli savdo, dehqonchilik va hunarmandchilik rivojiga keng zamin yaratgan. Baqtriya yozuvi esa yunon va oromiy yozuvlariga asoslangan holda o‘ziga xos alifbo tizimini shakllantirgan bo‘lib, bu hudud madaniy taraqqiyotining muhim bosqichini aks ettiradi. Ushbu yozma meros bugungi O‘zbekiston tarixida qadimiy yozma madaniyatning ildizlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

“O‘zbekiston tarixi (qadimgi davrlardan hozirgi kungacha)” asarida qayd etilishicha, Baqtriya aholisi o‘z davrida siyosiy va madaniy jihatdan yuksak darajada rivojlangan bo‘lib, qo‘shni Sug‘diyona, Marg‘iyona va Hindiston bilan faol aloqalar o‘rnatgan. Ayniqsa, Baqtriya yozuvi va tili Kushonlar davrida davlat tili sifatida keng qo‘llanilgan va bu Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy birligiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Shu bois, Baqtriya geografik jihatdan tabiiy boyliklarga boy, savdo yo‘llari chorrahasida joylashgani sababli uning iqtisodiy hayoti, shaharsozlik va yozma madaniyati yuqori darajada rivojlangan. Bu holat Baqtriyani Sharq sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biriga aylantirgan. Bu davr O‘rta Osiyo tarixining eng muhim bosqichlaridan biri sifatida qadrlanadi va uning boy merosi bugungi kunda ham mintaqaning tarixiy va madaniy o‘zligini chuqur o‘rganishda beqiyos ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asqarov A. O‘zbek halqining etnogenezi va etnik tarixi. - Toshkent, 2007.
2. Agzamova G. Tarix atamalarining izohli lug‘ati. - Toshkent, 2021.
3. Hamidov H., Ernazorov Sh., Rahimov B. O‘zbekiston tarixi. - Toshkent, 2021.
4. Muqimov Z. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. – Toshkent, "Adolat", 2003.
5. Shamsutdinov R., Sagdullayev A., Karimov Sh. O‘zbekiston tarixi (qadimgi davrlardan hozirgi kungacha). – Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2020.